

O'ZBEK VA INGLIZ XALQ O'G'IZAKI IJODI ASARLARINING O'ZIGA XOS O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Usmanova Sevvara Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent.

Xolmatova Shahzoda Kamoliddin qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola avlodlarda avlodga o'tib kelayotgan an'ana va ertaklarga boy, dunyo xalqi madaniyatlari qalbida o'rin tutgan, xalq og'izaki ijodi mo'jizali afsona va ertaklardan tortib to maftunkor va go'zal afsonalargacha ikki millat ajdodlarining e'tiqodi, urf-odatlar va qadriyatlar shuningdek, xalq og'izaki ijodi asarlaridagi farqlarni o'rganib chiqib, bu ikki xalqning madaniy merosning boy xilma-xilligini, o'xshashliklari, uning xilma-xil shakllari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xalq og'izaki ijodi, folklor, afsona, urf-odat, Alvasti, Simurg', Alpomish, elf, pari, ajdaho, qirq qaroqchi, Beowulf, Artur.

Xalq og'izaki ijodi ajdodlardan avlodlarga o'tib keladigan madaniy meros hisoblanadi. Folklor har bir xalqning madaniy merosini asrab-avaylash va an'analarni avloddan-avlodga o'tkazishda katta ro'l o'ynaydi. **Folklor** (inglizchadan folk – “xalq”, lore – “bilim”, “donolik”) – xalq ijodini ifodalovchi atama hisoblanadi. Buni birinchi marta fanga Ingliz arxeologi William Thoms 1846 – yilda olib kirgan. Shundan keyin “folklor” atamasi 1880-1990-yillarda ko'plab mamlakat va davlatlarga tarqala boshlagan. Og'izaki an'analar muloqotning jonli shakli hisoblandi, bu esa xalq og'izaki ijodi asarlarining yozma yozuvlarisiz tarqatish va saqlash imkonini beradi. Har bir xalqning o'ziga va o'zligiga xos bo'lgan xalq og'izaki ijodi bo'lgani kabi O'zbek va Ingliz xalqining asarlari ham bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari mavjud.

O'zbek xalq og'izaki ijodi, o'zbek millatining milliy, adabiy, musiqiy va san'at asarlari jamiyatimizda o'ziga xos beqiyos o'ringa ega. O'zbek folklori xalqning tarixiy, adabiy, diniy va milliy qadriyatlar, haqiqiy hikoyalari, maqollarini, o'ziga xos musiqasi va raqslari orqali, xalqning hayotini, ertaklarini, falsafiy fikrlarini yoritadi.

Ingliz xalq og'izaki ijodida esa Britaniya va qo'shma qavmlarning milliy folklorini ifodalaydi. Bu xalq og'izaki ijodi, Britaniya tarixi, adabiyoti, davlati, madaniyati va xalqi haqidagi hikoyalarni, maqollarni musiqani, raqslarni o'z ichiga olgan holda, qo'shma qavmlar, qabilalar, adabiyot yozuvchilari, xalq o'quvchi hikoyalari, mahalliy adabiyot va musiqiy tarixi bilan bog'liq hisoblanadi.

O'zbek va ingliz folklorida hayollarni o'ziga tortadigan afsonaviy mavjudotlari ko'p. O'zbek xalq og'izaki ijodidagi afsonaviy mavjudotlardan biri bu “Alvasti” (g'ayritabiiy mavjudot) bo'lib, u tog'larda, o'rmonzorlarda, botqoqliklarda yashab kun kechiradi deb hisoblangan. Yana biri esa qiziq qahramon “Simurg” (afsonaviy qush) ko'pincha donolik, aqllilik va yo'l yo'riq bilan bo'liqdir. Va yana shunga o'xshagan mavjudotlar o'zbek xalq og'izaki ijodida kuch-qudrat, sir va g'ayritabiiylik timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz folklori mamlakatning ramziy timsoliga aylangan ko'plab afsonaviy mavjudotlar bilan to'lib-toshgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Ingliz xalq og'izaki

ijodida esa elflar, parilar va ajdaho kabi mavjudotlarni uchratamiz. Bu ikki millatning o'ziga xos afsonaviy mavjudotlarida hamko'pincha insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirib, insoniy tajriba va hissiyotlar uchun metafora sifatida xizmat qiladi.

O'zbek va ingliz xalq og'izaki ijodining ajralmas qismini tashkil etadigan afsonaviy va qahramonlik ertaklarida, ko'pincha jasur qahramonlar, go'zallik, epik janglar va izlanishlar atrofida aylandi. O'zbek folklorida or-nomus, matonatni o'zida mujassam etgan qahramonlar haqidagi dostonlarga boy. Eng mashhur siymolardan biri "Alpomish" afsonaviy jangchi va shoirning sarguzashtlari og'izaki ijodida abadiylashtirilgan. Alpomishning janglar, muhabbat va hikmatlarga boy qahramonliklari bugungi kungacha tomoshabinlarni ilhomlantirib, maftun etib kelmoqda. "Alpomish" dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadimgi dostonchilik an'analari asosida xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo'lsa-da, aslida "Alpomish" dostoning eng qadimiy qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o'zida aks ettirgan. Mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, "Alpomish" dostonini xalqaro YUNESKO tashkiloti jahon ma'naviy mulki sifatida tan oldi. Eslatmoq o'rinliki, bu doston bir paytlar deyarli unutilayozgan edi. Faqatgina to'ylarda taniqli baxshilar tomonidan kuylanardi. Endilikda esa, u turli variantlarda yozib olinib, ko'p nusxalarda kitob holida qayta-qayta nashr etildi.[1.] Shu o'rinda aytish joizki, 2000-yilda jahon miqyosida ushbu dostonning ming yilligi nishonlangan bo'lsa, mamlakatimizda 1999-yil 9-noyabrda tantanali ravishda nishonlanganligi haqida maktab o'quv darsliklarida ham aytib o'tilgan. "Alpomish" - o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, otabobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir". "Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shohbaytidir"[2.]Alpomish va qirq qaroqchi kabi qahramonlar o'rnak bo'lib, mardlik sadoqat va ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqida muhim saboqlar bersa, inglizlarda esa shoh Artur va davra stol ritsarlari kabi qahramonlar rivoyatlarida jonlantiriladi. "Ingliz xalqining ham milliyligini ko'rsatib turuvchi xalq og'zaki ijodi nafaqat dostonlardan balki bir qator afsona hamda miflardan ham iboratdir. Ushbu asarlarning ham asosiy mavzusi yomonlik ustidan yaxshilikning g'alaba qozonishi, ona vatan uchun kurash, mardlik, do'stlikning ustunligi kabi kabi bir qator mavzulardir. Ingliz xalqining "Alpomishi"i bo'lmish "Beowulf" dostoni ham katta mavzuni qamrab oladi. Ushbu dostonda qahramonlik, yovuz kuchlarga tik qaray olish hamda shijaotlilik kabi hislatlar ulug'lanadi. Bu asar ingliz tilida saqlanib qolgan eng qadimiy epik she'r va xalq tilidagi Yevropa adabiyotining eng qadimgi asari hisoblandi. Ushbu asar qadimgi ingliz "sakslar" tilida yozilgan. O'shandan beri uni 65 tilga tarjima qilingan deya taxmin qilinadi."[3.]

O'zbek xalq og'izaki ijodi faqat afsona, rivoyat, ertak va maqollar bilan cheklanib qolmay, balki jo'shqin musiqa va raqs an'alarini ham o'z ichiga oladi. Dutor va doiraning jo'shqin ohanglari bilan ajralib turadigan an'anaviy musiqada o'zbek xalqining kechinmalari o'z ifodasini topgan. Xuddi shunday, baquvvat "Lazgi", "Shashmaqom" va nafis "Beshqarsak" kabi an'anaviy raqslar ham O'zbekistonning madaniy merosi va bayramona ruhini namoyish etadi.

An'anaviy ingliz musiqasida esa balladalar, xalq qo'shiqlari va raqs kuylarini o'z ichiga olgan keng janrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu musiqiy shakllar avloddan avlodga o'tib, ko'pincha skripka, akkordeon va melodeon kabi an'anaviy cholg'u asboblarda kuylangan va ijro etilgan. Ohanglari o'ziga xos jozibali ritmlari bilan ajralib turadi va ular sog'inch va hikoya qilish tuyg'usini uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek xalq og'zaki ijodi – maftunkor ertaklar, afsonaviy mavjudotlar, hikmatli maqollar, ifodali san'at xazinasi. U o'zbek xalqining madaniy o'ziga xosligini saqlab, avlodlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. O'zbekiston o'zining xalq og'zaki ijodi orqali bizni afsungarlik, qahramonlik va abadiy donishmandlik olamiga chorlaydi.

Ingliz folklorida afsonaviy mavjudotlar, qahramonlik afsonalari, qadrli urf-odatlar va mustahkam e'tiqodlarning jozibali ko'rinishlari to'qiladi. U Angliyaning boy madaniy merosidan dalolat beradi, o'tmishni hozirgi bilan bog'laydi va o'ziga xoslik tuyg'usini rivojlantiradi. Ingliz folklori afsonaviy mavjudotlarning sehrli ertaklaridan tortib, qadimgi urf-odatlar va xurofotlargacha bizni ushbu jozibali mamlakatning qalbida joylashgan sehr va sirni o'zlashtirishga chorlaydi.

Ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodi madaniy chegaralardan oshib ketadigan ajoyib o'xshashliklarga ega. Og'zaki ijodga tayanishdan tortib, afsonaviy mavjudotlar, rivoyatlar, g'ayritabiiy unsurlar va axloqiy saboqlarning mavjudligigacha bo'lgan bu ikki boy an'ana insonning hikoya qilish va inson tajribasini o'rganishga bo'lgan umuminsoniy istagini aks ettiradi. Umuman olganda har bir xalqning ijodi har xil bo'lsa-da, lekin mazmun jihatidan hammasini g'oyasi yaxshilik va ezgulikka qaratilgan va yo'g'irilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>
2. <https://askinfo.uz/1021/alpomish-dostoni-haqida-insho>
3. 4 Islom Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi . 1999.